



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 / ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА



INSURANCE

A collage of images including a globe, bar charts, gears, and a building facade with the university's name.



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECON-



“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilar uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash kafedrasи mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutualova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasи dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'lloshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalash borasida davlat tibbiy SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKİSTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyerberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKIOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashtkhujayev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKIOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKİSTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Matiyazova Sanobar Rajabbayovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,(PhD)
matiyazova@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/266

Annotatsiya: Mazkur maqoladagi hayot sug'urtasini amalga oshirishning iqtisodiy moxiyati va ahamiyati, O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urta sohasining joriy xolatlari va tendensiyalarini tahlil qilish hamda hayot sug'urta sohasini rivojlanishiga yo'nalishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, hayot sug'urtasi, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovlar, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy tahlili, sug'urta mahsulotlari, sug'urta biznesi, innovatsiya

Abstract: The article presents the economic essence and significance of life insurance, provides an analysis of the current state and trends of the life insurance sector in the insurance market of Uzbekistan, as well as the directions of development of the life insurance sector.

Keywords: insurance market, life insurance, insurance premium, insurance payments, financial analysis of insurance companies, insurance products, insurance business, innovations

Абстрактный: В статье изложены экономическая сущность и значение страхования жизни, дан анализ современного состояния и тенденций сектора страхования жизни на страховом рынке Узбекистана, а также направления развития сектора страхования жизни.

Ключевые слова: страховой рынок, страхование жизни, страховая премия, страховые выплаты, финансовый анализ страховых компаний, страховые продукты, страховой бизнес, инновации

Kirish(Введение/ Introduction)

Jahonda hayotni sug'urta qilish sohasini rivojlanishiga va uni raqamlashtirish borasida keng hajmdagi ishlar olib borilmoqda. Hayot sug'urtasi moliyaviy barqarorligi yo'lidagi mustahкам yordamchi instrument hisoblanganligi sababli sohada sug'urta kompaniyalarini mijozlarni jaib etishda va ularni turli xil risklardan himoyalashda raqamli texnologiyalardan, ekotizimlardan foydalanishi, sug'urta biznesiga tezlik bilan innovatsiyalarning tatbiq etilishiga olib keladi. Sohadan zamonaliv tajribalardan kelib chiqib aholini segmentlarga ajratgan holda yangi jozibador sug'urta mahsulotlari yaratilishi, hayot sug'urtasi tashkilotlarining mablag'larini investitsiya ob'ektlariga joylashtirishda raqamlashgan modellardan foydalanishi orqali rivojlanishiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu boradagi ko'plab tadqiqotlarning xulosalarida inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishda sug'urta summalarini inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda hisoblash usullarini qo'llash, sohani tez sur'atlar bilan rivojlanishda moliya bozorida qo'llanib kelinayotgan moliyaviy texnologiyalarni hayotni sug'urta qilish sohasiga tatbiq etish va buning natijasida ish yuritish xarajatlarini kamaytirish hamda firibgarlikning oldini olish kabi ilmiy qarashlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Обзор литературы/Literature review)

Iqtisodiy adabiyotlarda hayot sug'urtasi sohasi tushunchasiga oid nazariy va uslubiy jihatdan turlicha qarashlar mavjud. Rossiyalik olim A.Sulimenko o'zining ilmiy asarlarida «Hayot sug'urtasi sohasi deganda shaxsiy sug'urta turlaridagi ichki munosabatlar tizimi»ni tushunish kerakligini taklif etgan. Tadqiqotchi Ye.Semenova «Hayot sug'urtasi sohasidagi jamg'arib boriladigan sug'urta turlarini amalga oshirishda to'lovlik, qaytimlilik, muddatlilik va daromadlilik tamoyillarga roya etish zarururligini asoslab bergan hamda hayot sug'urtasiga oid yondoshuvlarni umumlashtirish orqali jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi tushunchasiga aniqlik kiritgan. Muallifning fikricha to'lovlik,

qaytimlilik, muddatlilik va daromadlilik tamoyillarga asoslangan holda jismoni shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlar tizimiga jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi deyiladi

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirish davomida ekspert baholash, umumlashtirish, taqqoslash, tarixiy va mantiqiy yondashuv, tanqidiy tahlil, statistik ma'lumotlarni guruhash usullaridan foydalanildi.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Hayotni sug'urta qilish sohasi ma'lum darajada iqtisodiy rivojlanishning katalizatori bo'lib, ma'lum bir iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi hisoblanadi, xususan, fuqarolarning mablag'larini tejash, kapital iste'molchilariga qayta taqsimlash. Zaxira fondlarini shakllantirish zarurati va ularni uzoq muddatli investitsiyalariga jaib qilish hayot sug'urtasi kompaniyalarini kapital bozorida faol ishtirot etishini ta'minlash.

O'zbekistonda hayotni sug'urta qilish sohasini rivojlanishiga qaratilgan islohotlar dastlab 2002 yil aprel oyida «Sug'urta faoliyati to'g'risidagi Qonuni qabul qilinishi bilan boshlandi va unga asosan umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta kompaniyalarini bevosita hayot sug'urtasi sohasida ish yurita olmasligi nazarda tutilgan. Shu asosida, O'zbekistonda birinchchi marta hayot sug'urtasi milliy sug'urta bozorini rivojlanishining alohida yo'nalishi sifatida belgilanadi, uning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni ta'kidlandi.

Hozirgi kunda respublikamizda hayotni sug'urta qilish sohasi shakllanish va rivojlanish bosqichida bo'lishiga qaramay, hayot sug'urtasi bozorida 5 ta sug'urtalovchingin mayjudligi,[7] ular tomonidan taklif etilayotgan sug'urta mahsulotlari ma'lum ob'ektiv sharoitlar tufayli halqaro standartlarga to'liq javob bermayapti hamda sog'lom raqobat muhitini shakllanmayapti. Hayotni sug'urta qilish sohasi bozor sig'imi bo'yicha ham, uning hajmlari bo'yicha ham hali foydalilmagan ulkan salohiyatga ega deb aytishimiz mumkin.

Bugungi kunda hayotni sug'urta qilish sohasida uning rivojlanishiga ta'sir qildigan omillar mayjud bo'lib, ular tufayli sohaning rivojlanish sur'ati anche past darajada qolmoqda. Bunda asosiy muammolardan biri bu sohada yetarli darajada yuqori bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarining yetishmasligidir. Malakali kadrlar yetishmasligi zamonaviy va innovatsion talablarga javob beradigan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, ularni aktuar hisob-kitobini yuritish, sug'urta mahsulotlarini sotishni tashkil etish, bozorda marketing tadqiqotlarini amalga oshirish va hayotni sug'urta qilish sohasini har tomonlama tahlil qilishgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonining deyarli barcha darajalariga tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 22 oktabrdagi 573-sloni «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq sug'urta bozori qatnashchilariga sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlarini amalga oshirish va erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada to'lash huquqi berildi. Sug'urta bozorida uzoq yillar davomida bunday to'lov mexanizmining amalga oshirilmaganligi sug'urta tashkilotlari va sug'urtalanuvchi, potensial sug'urtalanuvchilar o'rta sidagi munosabatlarda qo'shimcha to'siq yaratgan edi. Mazkur to'siqni qisqa davr ichida yengib o'tish bir qator qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga ham sabab bo'ldi.[2]

Hayotni sug'urtalash sohasi fuqarolarning bo'sh turgan pul mablag'larini jamg'arish va ularning hayotida sog'lig'i bilan bog'liq risklarni yuzaga kelish holatlarni himoyalash funksiyalarini amalga qaramasdan, fuqarolar bank depozitlaridan foydalanishni afzal ko'radilar. Aholini hayot sug'urtasi sohasining uzoq muddatli jamg'arib boriladigan turlariga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish va ularda mazkur sug'urta mahsulotlariga nisbatan qiziqish shakllantirishda mijozlarga kafolatli to'lovlarini taqdirm etish, sohada uzoq muddatli pul mablag'lari qaytimini kafolatlovchi fondlarni va mexanizmlarni yo'lda qo'yish, yuqori foizli daromadlarni hisoblashni ta'minlash lozimdir, bu faoliyatda faqatgana cheklangan investitsiya vositalari va banklarning muddatli depozitlaridan foydalanish sohadagi muammolarni saqlanib qolishiga sabab bo'ladi.

Fuqarolarning maqsadli jamg'armalarini shakllantirishda hayot sug'urtasi kompaniyalariga yo'naltirilayotgan pul mablag'larini daromad soliqlaridan ozod etish bo'yicha imtiyozlar berilishi ushu sohani rivojlanishiga hamda fuqarolar tomonidan bank depozitlariga nisbatan uzoq muddatli hayot sug'urtasi turlariga bo'lgan ehtiyojning ortishiga turki bo'ladi. O'zbekiston sug'urta amaliyotida uzoq muddatli jamg'arib boriladigan sug'urta turlarini keng targ'ib qilish va takomillashtirish bilan bog'liq bu kabi amaliyotlarni qo'llash aholi uchun mayjud mablag'larni investitsiyalashning eng oqilona unsuri sifatida hayot sug'urtasi sohasidan foydalanish va investitsion, jamg'arib boriladigan ahamiyatga ega bo'lgan sug'urta mahsulotlarini sotib olishda samarali xizmat qiladi.[6]

Mamlakatimizda hayot sug'urtasi bozorining amaldagi holati o'z navbatida, hayot sug'urtasi kompaniyalarining undagi faoliyati natijalarini bilan ifodalanadi. Shu jihatdan, O'zbekistonda hayot sug'urtasi bozorining hozirgi rivojlanish holati tahlilini, fikrimizcha, quyidagi bir necha yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- hayot sug'urtasi kompaniyalarini tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari dinamikasi;
- hayot sug'urtasi bozorida to'plangan sug'urta mukofotlarida hayot sug'urtasi kompaniyalarining ulushi;
- hayot sug'urtasi kompaniyalarini tomonidan amalga oshirilgan sug'urta to'lovlarini dinamikasi;
- hayot sug'urtasi bozorida amalga oshirilgan sug'urta to'lovlarida hayot sug'urtasi kompaniyalarining ulushi;
- hayot sug'urtasi kompaniyalarini kesimida hayot sug'urtasi bo'yicha to'lov koeffitsienti (sug'urta mukofotlarining zararlilik darajasi);
- milliy sug'urta bozorining konsentratsiya ko'rsatkichlari dinamikasi (Xerfindal-Xirshman indeksi asosida);
- hayot sug'urtasi sohasiga oid ko'rsatkichlarning hududlar kesimidagi holati;
- hududlar kesimida kesimida hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlar koeffitsienti;
- hayot sug'urtasi kompaniyalarining sohaga oid sug'urta klasslari bo'yicha faoliyati tahlili.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda hayot sug'urtasi bozorining holatini aks ettiruvchi eng asosiy ko'rsatkichlardan biri unda to'plangan sug'urta mukofotlari bo'lib, quyida uning tahlilini hayot sug'urtasi kompaniyalarini kesimida amalga oshiramiz (1-jadval).

1-jadval
Hayot sug'urtasi kompaniyalarini tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari dinamikasi¹, mlrd. so'mda[7]

№	Sug'urta kompaniyalari	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1	«O'zbekinvest Hayot sug'urta kompaniyasi» AJ	101,2	95,1	74,9	55,9	9,4
2	«Alfa Life Insurance» AJ	24,4	67,4	21,5	38,5	25,9
3	«Agros Hayot sug'urta kompaniyasi» AJ	129,6	96,2	62,9	59,6	10,1
4	«Kafolat Hayot Insurance» AJ	0,2	22,4	22,8	20,3	17,1
5	«Apex Life Insurance» AJ	-	11,2	17,6	63,2	181,3
Jami hayot sug'urtasi mukofotlari		417,3	586,4	334,4	237,5	243,8

Yuqorida jadval ma'lumotlarini tahlil qilar ekanmiz, shu asosida bir qator xulosalar shakllantirildi. Jumladan, dastlabki xulosa shundan iboratki, milliy sug'urta bozorida hayot sug'urtasi mukofotlari har yili o'rtacha ikki barobarga (2020 yilni hisobga olmaganida) o'sgan. Ammo, 2022 yildagi 57,0 foiz pasayishni bevosita koronavirus pandemiyasining hayot sug'urtasi bozoriga keskin ta'siri bilan izohlash mumkin.

Navbatdagi xulosaga ko'ra, hayot sug'urtasi kompaniyalarida sug'urta mukofotlarining hajmi yillar kesimida (2020 yil inobatga olinmaganda) pasayish-o'sish -pasayish («O'zbekinvest Hayot sug'urta kompaniyasi» AJ), o'sish-pasayish-o'sish («Alfa Life Insurance» AJ), pasayish-pasayish-pasayish («Agros Hayot sug'urta kompaniyasi» AJ), o'sish-pasayish-pasayish («Kafolat Hayot Insurance» AJ), pasayish-o'sish-o'sish («Apex Life Insurance» AJ) dinamikasini aks ettirgan.

Uchinchi xulosa ham o'ziga xos bo'lib, unga ko'ra, hayot sug'urtasi mukofotlarining o'sish dinamikasida sug'urta kompaniyalarining hissalarini turlicha. Masalan, «O'zbekinvest Hayot sug'urta kompaniyasi» AJ o'zining 2020 yildagi sug'urta mukofotlari hajmi 2024 yilda pasaygan, xuddi shunday vaziyat «Agros Hayot sug'urta kompaniyasi» AJning 2022 yildagi holatiga ham tegishli. Ammo, «Apex Life Insurance» AJ va uning sug'urta mukofotlari bo'yicha bozor ulushini ham o'sishiga olib kelgan.

Odatda, hayot sug'urtasi bozorining rivojlanishi mijozlarning sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchiga asoslanadi. Kompaniyalarga ishonch bevosita ularning amalga oshirgan sug'urta to'lovlariga bog'liq. Navbatdagi jadvalda aynan shu masalani tahlil qilamiz.

2-jadval
Hayot sug'urtasi kompaniyalarini tomonidan amalga oshirilgan sug'urta to'lovleri dinamikasi², mlrd. so'mda[7]

№	Sug'urta kompaniyalari	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
1	«O'zbekinvest hayot sug'urta kompaniyasi» AJ	68,1	110,4	86,8	96,6	20,0
2	«Alfa Life Insurance» AJ	17,6	39,1	38,0	39,3	20,4
3	«Agros Hayot sug'urta kompaniyasi» AJ	79,1	109,8	48,2	87,3	13,2
4	«Kafolat Hayot Insurance» AJ	0,02	14,4	18,4	31,6	5,4
5	«Apex Life Insurance» AJ	-	0,9	6,8	74,7	72,2
Jami hayot sug'urtasi to'lovleri		263,9	529,3	318,0	329,5	131,2

2-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish natijalariga ko'ra, hayot sug'urtasi kompaniyalarida sug'urta to'lovlarining hajmi yillar kesimida (2020 yil inobatga olinmaganda) pasayish-o'sish-pasayish («O'zbekinvest Hayot sug'urta kompaniyasi» AJ, «Agros Hayot sug'urta kompaniyasi» AJ) hamda o'sish-o'sish-o'sish («Alfa Life Insurance» AJ, «Apex Life Insurance» AJ), o'sish-o'sish-pasayish («Kafolat Hayot Insurance» AJ) dinamikasini o'zida ifodالangan. Hayot sug'urtasi kompaniyalarining 2020 yildagi pandemiya sabab faoliyatining barcha yo'nalishlarda pasayish kuzatilganligini inobatga olganda, qolgan yillarda sug'urta to'lovlarini har yili o'rtacha ikki barobarga o'sgan. Ammo, pandemiya oqibatlari hayot sug'urtasi bozorining salohiyatini 2023-2024 yillarda keskin oshirgan. Natijada, hayot sug'urtasi bozorining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha, jumladan barcha kompaniyalarda sug'urta to'lovlarini oshgan. Buni, hayot sug'urtasi kompaniyalarining sug'urta to'lovlarini bo'yicha bozor ulushi orqali ham ko'rish mumkin. Natijalar milliy sug'urta bozori monopolizatsiyasining anchha past darajasini o'zida aks ettirdi. Demak, milliy sug'urta bozorida raqobat ma'lum darajada ta'minlangan, kompaniyalar teng sharoitlarda faoliyat olib bormoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

O'zbekistonda uzoq muddatli hayot sug'urtasi turlari bo'yicha sug'urta mahsulotlarining yaratilmaganligi va hayot sug'urtasi bozorida uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha mukofotlar tushumining pastligiga

quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda: mamlakatimizda inflyasiya darajasining yuqoriligi, sug'urta bozorida uzoq muddatli pul mablag'larini ko'paytirishga mo'ljallangan moliyaviy instrumentlarning etishmasligi, hayot sug'urtasi kompaniyalari tomonidan fuqarolarning uzoq muddatli pul mablag'larini o'z vaqtida yoki to'liq holatda qaytishini ta'minlovchi kafolatlangan mexanizmlarning joriy etilmaganligidir.

Foydalilanigan adabiyotlar (Литература/ References):

1. Семёнова Е.В. Развитие накопительного страхования жизни физических лиц в Российской Федерации. Автореферат дисс на соискание к.е.н., Иркутск-2015 г
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 22 oktabrdagi «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi 573-sonli Qonuni <https://lex.uz/docs/-4562834>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 oktabrdagi «Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5265-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5692504>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdag'i «O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4412-son Qarori.
5. <https://lex.uz/docs/5692504>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi «Elektron turdag'i sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 780-son Qarori.
7. Yuldashev O., Zakirxodjayeva Sh. Hayot sug'urtasi. Darslik. –T.: Nihol-print, 2022. – 360 b. <https://lex.uz/uz/docs/5692504>
8. <https://napp.uz>

O'zbekistonda hayot sug'urtasi kompaniyalari faoliyatini raqamlashtirishda va sohaga ilg'or moliyaviy texnologiyalarni jalg etishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish hayotni sug'urta qilish sohasini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.